

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI



“Tasdiqlayman”

Navoiy viloyati PMM

direktori D.X.Safarov

2024-yil “27”-avgust

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

Kengashi to‘g‘risida

NIZOM

Mazkur Nizom Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2024-yil 27-avgustdagi 5-son yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

Navoiy – 2024

Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi Kengashi to'g'risida Nizom

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom Pedagogika markazi uchun tavsiyaviy xususiyatga ega. Pedagogik markaz faoliyatiga tegishli asosiy masalalarni ko'rib chiqish uchun direktor raisligida Pedagogik mahorat markazi Kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) tashkil etiladi.

2. Kengash tarkibi direktor, direktor o'rinbosari, markaz tarkibiga kiruvchi mustaqil tashkilot va tarmoqlar rahbarlari, kafedra mudirlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari rahbarlaridan tashkil etiladi. Professor-o'qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanuvchi a'zolarining soni direktorning buyrug'i bilan belgilanadi. Vakolat muddati 5 yil.

3. Kengash tarkibi markaz direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Har o'quv yilining boshida turli sabablarga ko'ra Kengash tarkibidan chiqqanlar o'rniga, yangi a'zolar saylanadi yoki nizom bo'yicha kiritiladi.

II. Ilmiy kengashning maqsad va vazifalari

4. Kengashning maqsadi – Pedagogika markazi jamoasi say'-harakatlari, intellektual salohiyati va boshqa barcha imkoniyatlarni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va boshqa qonunlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash, qayta tayyorlov va malaka oshirishning Davlat talablari darajasida mukammal bilim, malaka, ko'nikmalarni tinglovchilarga berishdan iborat.

5. Pedagogik mahorat markazi Kengashi:

- Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq davlat talablari, o'quv rejalari va dasturlarining qat'iy bajarilishini o'rganib chiqadi hamda ustuvor masalalar bo'yicha tavsiya va topshiriqlar belgilaydi;
- kafedralarning, o'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlari to'g'risidagi, pedagogika markazi qoshidagi masofadan o'qitishni hududiy muvofiqlashtirish markazi to'g'risidagi, shuningdek marketing xizmatining xalq xo'jaligining bitiruvchi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji, buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to'g'risidagi hisobotlarni eshitadi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;
- ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejalari ijrosi, professor-o'qituvchilar tarkibining malaka oshirish va qayta tayyorlash masalalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi;
- Pedagogika markazi rivojlanishining yillik va istiqbolli rejalarini tasdiqlaydi, moddiy-texnik ta'minot va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi;
- kafedralarni ochish, tugatish, o'zgartirish, shuningdek marketing xizmati takliflarini hisobga olgan holda qayta tayyorlov yo'nalishlari mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish yoki to'xtatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qiladi;
- professor, dotsent ilmiy unvonini olishga intilayotgan izlanuvchilarning hujjatlarini ko'rib chiqadi va belgilangan tartibda ilmiy unvonga tasdiqlashga taqdim etadi;
- Pedagogika markazi professor-o'qituvchilarining ingliz tilini bilishlarini ta'minlash va kompyuter texnologiyalari, Internetdan foydalana olishlari bo'yicha tayanch ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini muhokama qiladi va chora-tadbirlar belgilaydi;

- ta'lim jarayonining o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanganligi, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari, shuningdek innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashga asoslangan o'quv-uslubiy majmualarini tayyorlash va nashr etish masalalarini muhokama qiladi;
- stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchi va katta ilmiy xodim – izlanuvchi Pedagogika markaziga nomzodlarini tavsiya etadi, ularning shaxsiy rejalari va dissertatsiyalari mavzularini tasdiqlaydi;
- professor-o'qituvchilar tarkibidan nomzodlarni "Iste'dod" jamg'armalari orqali xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tishga tavsiya etadi;
- asosiy buyurtmachi tashkilot, viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda tinglovchilarning malakaviy amaliyoti samaradorligini oshirish masalalarini muhokama qiladi va ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;
- Respublika oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;
- ta'lim xizmatlari bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar, firma va kurslar faoliyati haqida rahbarlarning hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;
- Pedagogika markazi tinglovchilari va xodimlarining texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni belgilaydi.

III. Ilmiy kengash faoliyatini tashkil etish

6. Kengash o'z faoliyatini har o'quv yili uchun ishlab chiqarilgan rejaga muvofiq amalga oshiradi. Kengash rejasi Kengash yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng Pedagogika markazining direktori tomonidan tasdiqlanadi.

7. Pedagogika markazining o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy ishlarga doir barcha masalalar bo'yicha Kengash qarorlari ochiq ovoz berish tartibida ko'pchilikni ovozi bilan qabul qilinadi. Kengash majlisi uning tarkibidagi a'zolarining 2/3 qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Professor-o'qituvchilar tarkibi lavozimlarini egallash hamda professor yoki dotsent ilmiy unvonlarini berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlar va taqdimnomalar yuzasidan qarorlar yopiq ovoz berish yo'li bilan belgilangan tartibda qabul qilinadi.

8. Kengash yig'ilishi qarorlari Pedagogika markazining direktori tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

9. Kengash yig'ilishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Kengash raisi va Kengash kotibi tomonidan imzolanadi.

10. Kengash raisi muntazam ravishda Kengash qarorlarining bajarilishi bo'yicha tekshiruvlar tashkil etadi va Kengash a'zolariga ularning natijalari haqida axborot beradi.